

**ALISHER NAVOIYNING “MUXTARA” G‘AZALIDAGI FORSIY
IZOFALAR**

Misliddinova Malika Xolbayevna

Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

e-mail: malikamisliddinova@gmail.com

Ne‘matova Muhlisa Abdumannon qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

Tillarni o‘qitish fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

2-kurs talabasi “Mushoira” klubi a‘zosi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Xazoyinul-maoniy” kulliyotiga kiritilgan mashhur “Muxtara” g‘azalining lingvistik xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot markazida g‘azal matnidagi forsiy izofali birikmalar, ularning turlari va she‘rning badiiy mazmunini ochib berishdagi o‘rni yoritilgan. Muallif izofalarning nafaqat grammatik bog‘lanishini, balki ular orqali ifodalangan metafora va tashbehlarning semantik qatlamlarini tahlil qiladi. Maqolada keltirilgan xulosalar Navoiy asarlarining leksik-grammatik xususiyatlarini va turkiy she‘riyatda forsiy elementlarning sintezlashuv jarayonini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.*

Tayanch so‘zlar: *Alisher Navoiy, “Muxtara” g‘azali, forsiy izofa, lingvopoetika, semantik tahlil, mumtoz she‘riyat, izofali birikma.*

Аннотация. *В данной статье исследуются лингвистические особенности знаменитой газели «Мухтара» Алишера Навои, входящей в сборник «Хазоинул-маоний». В центре исследования – персидские изофаные сложные слова в тексте газели, их типы и роль в раскрытии художественного содержания стихотворения. Автор анализирует не только грамматическую связь изофанов, но и семантические слои метафор и аллегорий, выраженных через них. Представленные в статье выводы способствуют углублению понимания лексико-грамматических особенностей произведений Навои и процесса синтеза персидских элементов в тюркской поэзии.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, газель «Мухтара», персидский изофан, лингвопоэтика, семантический анализ, классическая поэзия, изофанский составной текст.*

Abstract. *This article studies the linguistic features of the famous ghazal "Mukhtara" by Alisher Navoi, included in the collection "Khazoyinul-maoniy". The focus of the research is on the Persian isophane compounds in the ghazal text, their types and their role in revealing the artistic content of the poem. The author analyzes not only the*

grammatical connection of isophanes, but also the semantic layers of metaphors and allegories expressed through them. The conclusions presented in the article serve to deepen the understanding of the lexical-grammatical features of Navoi's works and the process of synthesizing Persian elements in Turkic poetry.

Keywords: Alisher Navoi, "Muxhara" ghazal, Persian ezafe, linguopoetics, semantic analysis, classical poetry, ezafe construction.

Kirish (Introduction)

Oliy ta'lim o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishida sharq fors tilining o'rganilishi talabalarga mumtoz adabiyotdagi matnlarni mustaqil tarzda o'qib, tushunish, tahlil etish va shu tilda muloqot qila olish kompetensiyasini shakllantiradi. Fors tilida so'z birikmasi yasaliish yo'llaridan biri izofiy birikish keng qo'llaniladigan usuldir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Fors tilida aniqlanmish bilan aniqlovchi yoki qaralmish bilan qaratqich munosabatlari izofa deb ataluvchi urg'usiz e tovushi orqali ifodalanadi. Fors tili izofiy birikmasida so'z tartibi o'zbek tiliga qarama-qarshidir. O'zbek tilida avval aniqlovchi so'ng aniqlanmish, yoki avval qaratqich so'ng qaralmish kelsa, fors tilida esa aksincha avval aniqlanmish so'ng aniqlovchi yoki avval qaralmish so'ng qaratqich keladi. Fors tili grammatikasida izofiy aniqlovchi مضاف اليه birikmadagi aniqlanmish - مضاف mo'zof va mo'zofun-eleyh deb nomlanadi. Katta stol - miz-e bo'zo'rg - ميز بزرگ¹¹

Alisher Navoiy ijodi turkiy va forsiy lisoniy unsurlarning o'zaro uyg'unligi natijasida dunyoga kelgan yuksak badiiy cho'qqidir. Shoirning "Foniy" taxallusi bilan bitilgan forsiy merosi, xususan, ushbu "Muxhara" g'azali lingvistik jihatdan nihoyatda murakkab qurilishga ega bo'lib, undagi forsiy izofalar nafaqat so'zlarni bog'lovchi grammatik vosita, balki she'rning ichki musiqiyliigi va obrazlar silsilasini ta'minlovchi asosiy poetik qurilmadir. Izofa — ikki yoki undan ortiq so'zning o'zaro qisqa "-e" (o'zbek yozuvida "-i") tovushi yordamida birikishi bo'lib, u mazmuniy jihatdan aniqlovchi va aniqlanmish munosabatini yuzaga chiqaradi.¹² Quyida Alisher Navoiyning "Muxhara" g'azalini o'qishingiz mumkin:

Muxhara

Sahar vazid nasimi tarabfizoyi bahor,
Ki gasht boisi may xurdanam havoyi bahor.
Sipah kashid sui bog'u bin ba lola, ki shud
Ba milu shuqqayi yoqutgun livoyi bahor.

¹¹ Misliddinova M.X. Sharq (fors) tili fanidan amaliy-o'quv majmua. – Guliston, 2025.-30-bet

¹² Quronbekov A., Vohidov A., Ziyayeva T. Fors tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: "Musiqqa", 2006. – 32-bet.

Beh az bahor chu fasle baroyi ishrat nest,
Zi madh fasle sozam ado baroyi bahor.
Bahor naqdi latofat fidoyi yoron kard,
Ki naqdi joni chu mo bedilon fidoyi bahor.
Bahor garchi zudoyad g'am az dil, ammo hast
Tamavvuji may suhoni g'amzudoyi bahor.
Kushod g'uncha ba gulbun zi had burun, chu sahar
Vazid sui chaman bodi dilkushoyi bahor.
Agar ba murda dihad jon, ajab mador, ki hast
Nasimi ruh dar anfosi mushksoyi bahor.
Ghanimat ast bahori javoni az payi aysh,
Ki to bahori javoni buvad, chi joyi bahor?
Bahori umr ghanimat shumor, ey Foni,
Fanoyash archi, ki zud ast chun fanoyi bahor!¹³

G'azalning birinchi baytida qo'llanilgan **"nasimi tarabfizoyi bahor"** birikmasi uch a'zoli murakkab izofiy zanjir (izo fe-ye mosalsal) hisoblanadi. Bu yerda shoir bahor elchisi bo'lgan shabbodaning (nasim) inson ruhiyatiga shodlik bag'ishlovchi (tarabfizo) xususiyatini izofa yordamida konkretlashtiradi. Darsliklarda ta'kidlanganidek, bunday zanjirlarda har bir keyingi so'z o'zidan oldingisini aniqlab keladi va yaxlit bir mantiqiy obrazni shakllantiradi.¹⁴

Shoirning badiiy mahorati ayniqsa tashbehlarni izofa qolipiga solishda yorqin namoyon bo'ladi. G'azaldagi **"livoyi bahor"** (bahor bayrog'i) birikmasi bunga misoldir. Navoiy lolani shunchaki gul sifatida emas, balki bahor qo'shinining "yoqutgun" (yoqutsimon-olovrang) bayrog'i sifatida tasvirlaydi. Bu yerda genitiv izofa shunchaki egalikni emas, balki kuchli metaforik ko'chimni yuzaga chiqargan. Fors tili grammatikasiga ko'ra, bu turdagi birikmalar aniq predmet va mavhum tushuncha o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.¹⁵

G'azal matnida atributiv izofalarning o'rni ham beqiyosdir. Masalan, **"anfosi mushksoyi bahor"** (bahorning mushk taratuvchi nafasleri) birikmasida bahor havosi Isonafaslik xususiyati bilan tavsiflanadi. Izofaning ikkinchi a'zosi bo'lgan "mushksoy" so'zi aniqlanmishning hidini va mohiyatini ochib beryapti. Bunday birikmalar she'riy

¹³ <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-devoni-foniydan-tarjimalar.html>

¹⁴ Nishanbayeva A., Karimov D., Kalandarov M. Fors tili. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – 48-bet.

¹⁵ Abdusamatov M. Fors tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1977. – 128-bet.

matnda ixchamlikni ta'minlash bilan birga, kitobxon tasavvurida rang-barang manzaralarni hosil qiladi.¹⁶

G'azalning falsafiy tugunlari ham aynan izofali qurilmalar orqali yechiladi. Navoiy yoshlikni bahorga qiyoslar ekan, **“bahori javoniy”** va **“bahori umr”** birikmalaridan foydalanadi. Bu yerda hayotning eng gullagan davri va uning o'tkinchiligi izofa yordamida muhrlangan. G'azal oxiridagi **“fanoyi bahor”** (bahorning yo'qolishi) birikmasi esa inson umrining poyoniga ishoradir. Fors tili darsliklarida ko'rsatilganidek, bunday izofalar tushunchalarni umumlashtirish va ularga ramziy ma'no yuklashda eng qulay lisoniy vosita bo'lib xizmat qiladi.¹⁷

Tahlil natijalari (Analysis and results)

Xulosa qilib aytganda, Navoiyning **“Muxtara”** g'azali forsiy izofalarning nafaqat grammatik, balki badiiy-estetik imkoniyatlarini namoyish etuvchi mukammal namunadir. Izofalar matnda so'zlar aro mantiqiy ko'prik vazifasini o'tab, she'rning umumiy g'oyasini – bahor, yoshlik va umrning g'animatligini ham ochib berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'quvchiga to'laqonli zavq berib, unda badiiy didni shakllantiradi. Inson umrini ezgulikka sarflash, undan oqilona foydalanish, go'zal hayotda ezguliklarni ko'proq yaratish, tabiatni sevisish hamda qadrlash kabi qadriyatlarining mukammallashuvini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronbekov A., Vohidov A., Ziyayeva T. Fors tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: "Musiq", 2006. 568 -bet.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-devoni-foniydan-tarjimalar.html>
3. Nishanbayeva A., Karimov D., Kalandarov M. Fors tili. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. 170 - bet.
4. Abdusamatov M. Fors tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1977. 423- bet.
5. Misliddinova M.X. Sharq (fors) tili fanidan amaliy-o'quv majmua. – Guliston, 2025. 102- bet.
6. Vohidov A.A. Fors tili (Sodda gap sintaksisi). – Toshkent: 2009. 64- bet.

¹⁶ Misliddinova M.X. Sharq (fors) tili fanidan amaliy-o'quv majmua. – Guliston, 2025. – 30-bet.

¹⁷ Vohidov A.A. Fors tili (Sodda gap sintaksisi). – Toshkent: 2009. 65-bet